


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIVOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:

Nº 18

2022 yil "29" 08



**"KADASTR ISHLARINI TASHKILLASHTIRISH,
REJALASHTIRISH VA IQTISODI"**

ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 300000 - Ishlab chiqarish texnik soha

Ta'lim sohasi: 310 000 - Muhandislik ishi

Ta'lim yo'nalishi: 5311500 - Geodeziya, kartografiya va kadastr (bino va inshootlar kadastri)

Jami o'quv soati: 174 soat

Shu jumladan

	Jami	7-semestr	8-semestr
Ma'ruba	42 soat	20 soat	22 soat
Amaliy mashg'ulotlar	42 soat	22 soat	20 soat
Mustaqil ta'lim soati	90 soat	44 soat	46 soat
Kurs ishi	-	-	-

Qarshi-2022 yil

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lif Vazirligi 2019 yil 22-dekabrdagi № 1180 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan fan dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:


B.N.Jumanov-QarMII "Geodeziya,
kadastr va yerdan foydalanish"
kafedrasi kata o'qituvchisi

Fanning ishchi o'quv dasturi "Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish" kafedrasi yig'ilishida (bayon № 1, 22.08 2022y.), Geologiya va konchilik ishi fakulteti Uslubiy komissiyasida (bayon № 1, 27.08 2022y.) va institut Uslubiy kengashida (bayon № _____, _____ 2022y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

QMII O'quv- uslubiy boshqarma
boshligi:

QMII Geologiya va konchilik ishi
fakulteti dekani:

"Geodeziya, kadastr va yerdan
foydalanish" Kafedra mudiri:



dos. Sh.Turdiyev



dos. T.N.Yarboboyev



dos. G.N.Aliqulov

O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limgangi o'rni

Ushbu fan talabalarga kadastr xizmati karxonasi ishlarini tashkillashtirish, rejalashtirish va iqtisodi jarayonini, kadastr ishlarining umumiyl tuzilishini, ularni tashkil etishda kadastr korxonalarining vazifalarini, kadastr ishlarini rejalashtirish, tashkillashtirish, boshqarish, iqtisodiy samaradorlik xolatini yaxshilash usullarini o'rgatish dolzarb masaladir.

Kadastr ishlarini tashkillashtirish, rejalashtirish va iqtisodi fani umumkasbiy blokiga kiritilgan kurs xisoblanib, to'rtinchı kursda o'qitilishi maqsadga muvoqidir. Kadastr ishlarini iqtisodiy baholash uchun iqtisodiy va kadastr meyorlardan foydalana olishn o'rgatish asosida kadastr sohani rivojlantirish masalalari oliy ta'lif sohasini ham to'liq qamrab oldi.

O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Kadastr ishlarini tashkillashtirish, rejalashtirish va iqtisodi fanining asosiy maqsadi talabaga kadastr ishlarini rejalashtirish, tashkil qilish, boshqarish va iqtisodiyoti usullarini o'rgatish asosida kadastr ishlab chiqarishini rejalashtirish, tashkillashtirish va boshqarish loyixalarini tuzishda iqtisodiy va texnikaviy meyorlardan to'g'ri foydalanish vazifalarini bajarishni o'rgatadi.

**Fan buyicha talabalari bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan
talablar**

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yidagi talablar qo'yiladi, **talaba**:

— kadastr ishlarini tashkillashtirish, rejalashtirish va iqtisodiy jarayonini tashkil etishda kadastr korxonasi vazifalarini, iqtisodiy, texnik va huquqiy meyorlari haqida **bilim va tasavvurga ega bo'lishi**;

— kadastr ishlab chiqarishini rejalashtirish, tashkillashtirish va boshqarish loyixalarini tuzishda iqtisodiy va texnikaviy meyorlardan to'g'ri foydalanishni **bilishi va ulardan foydalana olishi**;

— kadastr korxonasi tizimini tashkillashtirish, rejalashtirish va iqtisodiy jarayonini tashkil etishda iqtisodiy baholash usullaridan foydalana olish bo'yicha **ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak**.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyiligi

Ushbu fan asosiy maxsus fan hisoblanib 7-8- semestrlarda o'r ganiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan umumkasbiy ("Geodeziya", "Geografiya", "Geologiya va geomorfologiya", "Yer va bino inshootlar huquqi", "Ko'chmas mulk davlat kadastr", "Geoinformatika va fazoviy tahlil", "Yer va bino inshootlar hatlovi", "Kartografik chizmachilik") fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Fanni o'qitishda zamонавиъ ахборот ва педагогик технологиялар

Talabalarning kadastr ishlarni tashkillashtirish, rejalashtirish va iqtisodi fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamонавиъ usullaridan foydalanish, yangi informasiy - pedagogik texnologiyalarini tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallari, elektron dasturlar, materiallар, virtual stendlar hamda ishlab chiqarishda mavjud holatlarning rasmlaridan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy dasturlarida mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalaniladi.

"Kadastr ishlarni tashkillashtirish, rejalashtirish va iqtisodi" kursini loyihalashtirishda qoyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lif. Bu ta'lif o'z mohiyatiga ko'ra ta'lif jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'lifni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lif oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyatini bilan bog'liq; o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lif texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yunaltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lif oluvchining faoliyatni faollashtirish va jadallashtirish,

o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'lifni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'lifni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lif beruvchi va ta'lif oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarini baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lif. Ta'lif mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lif oluvchi faoliyatini faollashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlaitirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamонавиъ vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid vizuallash), muammoli ta'lif, keys-stadi, amaliy mashg'ulotlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot, hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, jamoa va guruhi.

O'qitish vositalari: O'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalarini.

Kommunikasiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlari.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so'rov, joriy, oralig va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qoyilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va talabaning birgalikdagi

harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham, butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida og'zaki va test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida talabalarning bilimlari baholanadi.

“Kadastr ishlarini tashkillashtirish, rejalashtirish va iqtisodi” fanini o'qitish jarayonida “Internet” tarmog'idagi rasmiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

Ma'ruba mashg'ulotlari

T/r	Mavzular nomi	Soat
7-semestr		
1	Kadastr ishlab chiqarishni tashkiliy-iqtisodiy asoslari.	4 soat
2	Kadastr ishlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi asoslari.	4 soat
3	Kadastr ishlarini rejalashtirishning asosiy vazifalari, mohiyati va prinsiplpri.	4 soat
4	Kadastr ishlarini bajarishda xo'jalik hisobi va rahbar xodimlarning majburiyatları va javobgarligi.	4 soat
5	Kadastr ishlarini amalga oshirishda ish vaqtি sarfini aniqlash usullari.	4 soat
Jami		20
8-semestr		
1	Kadastr ishlarini bajarishda mehnat talab qilish sig'imini va ishlarini davom etish muddatlarini aniqlash.	4 soat
2	Kadastr ishlab chiqarishni boshqarish.	4 soat
3	Kadastr ishlab chiqarishda mehnatni meyorlash asoslari.	4 soat
4	Kadastr faoliyatida mehnatga haq to'lash.	4 soat
5	Kadastr ishlarini moliyalash va uning samaradorligi.	4 soat

6	O'zbekiston Respublikasida turar-joy ko'chmas mulkini baholash va ekspertizasini o'tkazishda kadastr faoliyati tashkil etish.	2 soat
	Jami	22
	Umumiy soat	42

Ma'ruba mashg'ulotlari multimedya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada akadem guruhlar oqimi uchun o'tiladi.

Amaliy mashg'ulotlar.

T.R	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	soat
7-semestr		
1.	Kadastr ishlab chiqarishni tashkiliy-iqtisodiy asoslari.	4 soat
2.	Kadastr ishlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi asoslari.	4 soat
3.	Kadastr ishlarini rejalashtirishning asosiy vazifalari, mohiyati va prinsiplpri.	4 soat
4.	Kadastr ishlarini bajarishda xo'jalik hisobi va rahbar xodimlarning majburiyatları va javobgarligi.	4 soat
5.	Kadastr ishlarini amalga oshirishda ish vaqtি sarfini aniqlash usullari.	4 soat
6.	Kadastr ishlarini bajarishda mehnat talab qilish sig'imini va ishlarini davom etish muddatlarini aniqlash.	2 soat
Jami:		22
8-semestr		
1.	Kadastr ishlab chiqarishni boshqarish.	4 soat
2.	Kadastr ishlab chiqarishda mehnatni meyorlash asoslari.	4 soat
3.	Kadastr faoliyatida mehnatga haq to'lash.	4 soat
4.	Kadastr ishlarini moliyalash va uning samaradorligi.	4 soat
5.	O'zbekiston Respublikasida turar-joy ko'chmas mulkini baholash va ekspertizasini o'tkazishda kadastr faoliyati tashkil etish.	4 soat
Jami		20
Umumiy soat		42

Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akadem guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi. "Keys-stadi" texnologiyasi ishlataladi, keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimediya qurilmalari yordamida o'tkaziladi.

Mustaqil ta'lif

Nº	Mustaqil ta'lif mavzulari nomi	Dars soatlari hajmi
7-semestr		
1	Kadastr ishlab chiqarishni tashkil etish va rejalashtirish faniga kirish.	8 soat
2	Kadastr ishlarini bajarish tartibi va tashkil etish asoslari.	8 soat
3	Kadastr ishlar bo'yicha hisob va hisobotlar olib borish.	8 soat
4	Kadastr ishlarini rejalashtirish.	8 soat
5	Kadastr tashkilotidagi xodimlarning asosiy faoliyatidagi javobgarligi va majburiyatları.	6 soat
6	Kadastr ishlab chiqarishida ish vaqt sarfini meyorlash.	6 soat
Jami soat		44
8-semestr		
1	Kadastr faoliyatida mehnatga haq to'lash usullari.	8 soat
2	Kadastr ishlariga sarf bo'ladigan vaqtini aniqlash yo'llari.	8 soat
3	Kadastr ishlarida mehnatni ilmiy tashkil qilish.	8 soat
4	Kadastr ishlarini moliyalashni samaradorligi.	8 soat
5	Kadastr ishlarida hisob va hisobot olib borish.	8 soat
6	Ko'chmas turar-joy binosini bozor bahosini topish.	6 soat
Jami soat		46
Umumiy soat		90

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlanadi va uni taqdimoti tashkil qilinadi.

Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish.

Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirishini aniqlash uchun quyidagi baholash turlari o'tkaziladi:

Oraliq baholash (OB) - semestr davomida talabaning fan o'quv dasturini tegishli tugallangan bo'lim(lar)ini o'zlashtirishini baholash usuli. OB soni (bir semestrda 1 tadan oshmasligi lozim) va shakli (suhbat, yozma ish, og'zaki so'rov, test o'tkazish, kollokvium, hisob-grafika ishi, nazorat ishi, kurs ishi, kurs loyixasi, ijodiy topshiriq va hokazo) fan xususiyati va unga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

Yakuniy baholash (YAB) - semestr yakunida talabaning muayyan fan buyicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishini baholash usuli. U asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan yozma ish, og'zaki so'rov, test, ijodiy ish va boshqa shakkarda o'tkaziladi.

Talabaning fan buyicha o'zlashtirishini baholashda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi:

5 (a'lo) baho:

xulosa va qaror qabul qilish;
ijodiy fikrlay olish;
mustaqil mushohada yurita olish;
olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega bo'lish.

4 (yaxshi) baho:

mustaqil mushohada yurita olish;
olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo'lish.

3 (qoniqarli) baho:

mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.

2 (qoniqarsiz) baho:

dasturni o'zlashtirmaganlik; fanning mohiyatini bilmaslik; aniq tasavvurga ega bo'lmaslik; mustaqil fikrlay olmaslik.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

1. А.А. Варламов С.А. Гальченко. Основы кадастра недвижимости. Учебник. Москва Издательский центр «Академия» 2013.
2. Г.А. Калабухов, В.Н. Баринов, Н.И. Трухина, А.А. Харитонов. Основы кадастра недвижимости. Учебное пособие. Воронеж 2014.
3. М.А. Невская, Т.В. Сидорова Экономическая оценка недвижимости и система платежей за землю, Санкт-Петербург, 2002.
4. Яркина Т.В. "Основы экономики предприятия" Санкт-Петербург, 2012 й
5. Juraqulov D.O. Yer va bino inshootlar ro'yxati va hisobi. – T.: SamDAQI, 2019. – 560 b.
6. Juraqulov D.O. Yer va bino inshootlar huquqi. – T.: SamDAQI, 2019. – 315 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidaga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. - T.: "O'zbekiston", 2014. 46 b.
3. SHNK 3.01.01-03 «Organizatsiya stroitelnogo proizvodstva». Gosarkitekstroy RUz. 2003
4. Levy, S. Project Management in Construction / S. Levy. – 6th ed. – McGraw-Hill, 2012.
5. 9. Muxammadiyev O'.A., Djabriyev A.N., Buriyev X.T., Yuzboyeva M.Z. Menejment. O'quv qo'llanma. 2019 y.
6. 10. Muxammadiyev O'.A., Buriyev X.T., Yuzboyeva M.Z. Menejment savol va javoblarda. O'quv qo'llanma. 2019 y.

Internet saytlari

1. <http://www.uz>
2. <http://www.gov.uz>
3. <http://www.press-service.uz>
4. <http://www.stat.uz>
5. <http://www.edu.uz>